AKSIYA NARXLARI HARAKATINI SAMARALI PROGNOZ QILISH ORQALI FOND BOZORDAGI INVESTOR FAOLLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Abdugaffarova Dinara Xusan qizi

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida davlatning strategik maqsadlariga erishish uchun yo‘naltirilgan islohotlarni fond bozoriga investorlarni jalb etishga asoslangan holda amalga oshirish talab etilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy sharoitda aksiya narxlarini prognoz qilish orqali investor faolligini oshirishda duch keladigan muammolarga bir necha yechimlarni keltirgan.

Kalit so’zlar: Aksiya, qimmatli qog’ozlar, investor, fond bozori, qimmatli qog’ozlar bozori

Qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni litsenziya asosida ish olib boradigan fond birjalari va investitsiya institutlari qonun hujjatlariga 66 muvofiq tashkil etadi. Fond birjalari qimmatli qog'ozlar narxini kotirovkalashni, bitim narxini, qimmatli qog'oz kursini, qimmatli qog'oz bo'yicha talab va taklif narxini qayd etish, narxlarning eng baland va eng past darajalarini aniqlash orqali amalga oshiradi. Qimmatli qog'ozlarni tarqatish to'g'risida shuni ta'kidlab o'tish joizki, emitentlar o'zi chiqargan qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, komission haq evaziga banklar, investitsiya kompaniyalari, moliya brokerlari orqali sotish huquqiga ega.

Investor qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va hisobidan sotib oluvchi jismoniy yoki yuridik shaxsdir. Chet el fuqarolari yuridik shaxslar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni jonlantirish uchun aholining pul mablag'larini bir joyga jamlovchi va aksiyalarning daromad berishini ta'minlovclii investitsiya fondlarining tarmoqlarini tashkil etish va ularning maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga erishish lozim. Buning uchun esa Respublikamizning shunga mas'ul qilib belgi-langan idoralari investitsiya fondlariga zarur bo'lgan binolarni muayyan maqsadda ajratish, auditorlik firmalari tarmog'ini rivojlantirishni rag'batlantirish, investitsiya fondlarini zarur bo'lgan yetarli axborot bilan ta'minlash va ular uchun talab qilinadigan malakaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash yo'li bilan investitsiya fondlarini tashkil etishga va ularning faoliyat ko'rsatishiga har tomonlama ko'maklashishlari lozim.


Bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish uchun investitsiya institutlarining fond birjasidagi savdolarga bab-baravar kirishini hamda haqiqiy talab va taklifni, emitentlarning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, qimmatli qog'ozlarning sotilish darajasini hisobga olgan holda qimmatli qog'ozlarning savdoga qo'yilishini ta'minlash zarur.

Qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining manfatdorligini oshirish, fond bozorida operatsiyalarni faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarning dividendlar hamda qimmatli qog'ozlarning sotib olish va sotish narxlari o'rtasidagi tafovutdan olingan daromadlari uch yil muddatgacha soliqqa tortilishdan ozod qilingan.

Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasini tuzish chog'ida bitim qatnashchilaridan olinadigan qimmatli qog'ozlar operatsiyasi solig'i bekor qilingan.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlar emissiyasisini ro'yxatdan o'tkazish chog'ida emitentdan olinadigan qimmatli qog'ozlar operatsiyasi solig'ining stavkasi kamaytirildi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida xorijiy investorlarning qatnashishini rag'batlantirish uchun xorijiy investorlarning O'zbekiston Respublikasi emitentlarining qimmatli qog'ozlarini sotib olishga, qo'yilgan mablag'larni va ular bo'yicha olingan daromadlarini konvertatsiyalashga, keyinchalik amaldagi qonunchilikka muvofiq renatriatsiya qilishga bo'lgan huquqlarning amalga oshirilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.



11-rasm. "Toshkent" Respublika fond birjasi savdo aylanmasida iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi[1]

Yuqoridagi "Toshkent" RFBda qimmatli qog"ozlarning birlamchi joylashtirilishi va ikkilamchi bozordagi aylanmasida qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini quyidagicha tahlil qilish mumkin: 2020 yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan birinchi marta chiqarilgan aksiya va obligatsiyalarni birlamchi joylashtirish orqali jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini tijorat banklari qimmatli qog'ozlarining ulushi tashkil qilmoqda, ya'ni umumiy qo'shimcha aksiyalar chiqariluvi emissiyalari hajmining 67,8%i. O'zlarining qo'shimcha emissiyalarini fond birjasi orqali muvaffaqiyatli joylashtirgan emitentlar qatoriga sanoat tarmog'i korxonalarini – 25,8% va savdo tarmog'i korxonalarini – 6,4% ham kiritish mumkin. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorda ham yuqori mavqeni egallab turibdi, ya'ni ikkilamchi bozor umumiy aylanmasining 65,4% ini tashkil qilmoqdi. Shuningdek, ikkilamchi bozorda sanoat korxonalarining qimmatli qog'ozlariga ham qiziqish kata bo'lmoqda – 19,4%. Shuningdek, sanoat tarmog'idagi korxonalarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarning hajmi ham umumiy birja aylanmasida 21,6% ulushni tashkil qildi (46,0 mlrd. so"m).

2020 yilda fond birjasi savdo aylanmasida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari tarkibi quyidagicha:

- moliya tarmog'ining umumiy birja aylanmasidagi ulushi 55,9% yoki 95,4 mlrd. so'm shu jumladan, banklar – 51,6% yoki 88,1 mlrd. so'm, sug'urta kompaniyalari - 2,1% yoki 3,6 mlrd. so'm va lizing kompaniyalari -2,2% yoki 3,7 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda;
- sanoat tarmog'ining umumiy birja aylanmasidagi ulushi – 29,3% yoki 49,9 mlrd. so'm;
- qurilish korxonalari tarmog'ining ulushi – 2,1% yoki 3,5 mlrd.so'm;

Fond birjasi faoliyatini faollashtiruvchi omillardan biri bu imkoniyatli investorlar sonini kengaytirishdir. Bugungi globallashuv jarayonida, oldingi yillarga
qaraganda qimmatli qog'ozlar savdosi orqali tez foyda olish imkoniyati kengayib bormoqda. Jahon tajribasidan ma'lumki, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar boshqa ba'zi sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalarga nisbatan ko'proq foyda keltirishi va inflyatsiyadan ishonchli himoya qila olishini ko'rsatmoqda. Shubhasiz, bizning mamlakatimizda ham qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faolligini oshirayotgan va aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib olish hisobiga ularning aktivlariga egalik qilishi mumkinligini tushunadigan investorlar sinfi shakllanib bormoqda.

[1] Respublika fond birjasi "Toshkent" rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.www.uzse.uz

Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va muvofiqlashtirishda investorlarni jalb qilish hamda ularning huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishi, xorijiy sarmoyadorlarni o'z kapitallari bilan mamlakatimizga kirib kelishiga zamin yaratadi va natijada iqtisodiyotimiz barqarorlashuviga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Xalqaro tajribaga ko’ra, qimmatli qog’ozlar bozori iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishning muhim manbai bo’lib, bank krediti orqali moliyalashtirishning muqobili sanaladi. Shu bois ham har qanday davlat iqtisodiy tizimining holati fond bozoridagi faollikda namoyon bo’ladi. Mazkur bozorda yuridik yoki jismoniy shaxslar o’z mablag’ini kelgusida foyda olish maqsadida aksiya hamda boshqa qimmatli qog’ozlarga yo’naltiradi. Shuningdek, mamlakatimiz fond bozorini yanada rivojlantirish va barqarorlashtirishda tijorat bank investitsiyalaridan foydalanish maqsadga muofiqdir:

-fond bozorida banklar tomonidan qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo’yicha soliq mexanizmida birmuncha yengilliklar va imtiyozlar joriy etilishi lozim;

-birja savdolarida sotiladigan moliyaviy instrumentlar sonini ko’paytirish, ya’ni moliyaviy fyuchers, opsion, depozitar tilxatlar va ipoteka obligatsiyalarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karabayev S. A. Aksiyalar bozor qiymati va narxi ekvivalentligini ta’minlash yo‘llari
2. Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / S.E. Elmirzayev; – T.: “Iqtisod-moliya”
3. R.X. Karlibayeva. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. T:- Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. www.uzse.uz